



"TASDIQLAYMAN"

Samarqand MGQE boshlig'i v.b.

S.Yu. Nematullayev

"21" 10 2024 yil

Samarqand Markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi
xodimlari safida o'tkazilgan davra suhbat
BAYONNOMASI № 26

21.10.2024 yil

Samarqand shahri

Qatnashdilar: Samarqand MGQE muhandis-texnik xodimlari jami-20 kishi.

Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari.

Samarqand MGQE topshiriqlarning ijrosini nazorat qilish bo'yicha inspektori A.B.Olmasov, o'z so'zida korrupsiyaga qarshi kurashda va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytarishda jamoatchilikning ishtirokini kengaytirish zarurligini tushuntirdi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik, shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi masalalarini tushuntirdi. Bugungi kunda korrupsiya illati mamlakatimiz taraqqiyoti uchun jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligini ta'kidladi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 dekabrda "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomini tasdiqlash haqida"gi 829-sonli qarorining mazmun mohiyatini tushuntirdi. Jinoyatga jazo muqarrarligi ta'kidladi, hamda korrupsiyaga va korrupsiyaga oid jinoyatlar tushunchalariga izoh berdi.

Davra suhbat davomida O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi 2024 yil 5 iyundagi 931-sonli Qonunining mazmun-mohiyati tushuntirilib, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikni buzganligi uchun va ushbu qonunchilik talablarini bajarmaslik holatlarida qo'llaniladigan jazo choralari va O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 193-4-moddasiga doir ma'lumot taqdim qildi va O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 121-moddasining mazmun-mohiyatini tushuntirildi.

**Toshiriqlarning ijrosini nazorat
qilish bo'yicha inspektor**

"21" 10 2024 yil.

A.B.Olmasov

